

Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026- yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-iyul oylarida, Buxoro viloyatida jami 12 674,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 115,3 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	12 674,6	115,3
Buxoro sh.	2 219,1	101,6
Kogon sh.	362,3	102,0
Olot tumani	893,1	172,9
Buxoro tumani	568,1	102,8
Vobkent tumani	299,3	103,1
G'ijduvon tumani	838,3	102,3
Kogon tumani	860,4	100,8
Qorako'l tumani	755,8	193,8
Qorovulbozor tumani	842,6	2,4 m.
Peshku tumani	440,9	105,5
Romitan tumani	667,9	104,3
Jondor tumani	399,6	103,9
Shofirkon tumani	561,4	102,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-iyul oylarida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,5 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 25,0 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 120,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,5 % ulushni va 2025- yilning mos davriga nisbatan 118,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 451,5	628,4	298,2
o'sish sur'ati, %	5,0 m.	107,0	115,0
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2 592,5	2 541,3	650,2
o'sish sur'ati, %	85,0	123,7	120,4
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	4 512,4	-	-
o'sish sur'ati, %	107,2	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 378,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 2,1 m. ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 9,0 % ga ko'payib, 18,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 45,6 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil etgan holda 5 784,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 35,6 % ni yoki 4 512,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 107,2 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	2 378,2	5 784,0	4 512,4	2,1 m.	102,5	107,2
Buxoro sh.	375,7	1 561,8	281,6	93,4	103,2	105,0
Kogon sh.	3,7	322,7	35,9	16,2	108,0	106,3
Olot tumani	446,8	262,5	183,8	26,8 m.	81,3	103,9
Buxoro tumani	19,0	353,3	195,8	158,1	99,4	105,7
Vobkent tumani	19,4	179,1	100,8	181,3	98,1	103,9
G'ijduvon tumani	24,5	461,0	352,8	51,0	106,5	104,0
Kogon tumani	23,7	663,1	173,6	71,3	101,1	105,6
Qorako'l tumani	425,8	178,0	152,0	10,5 m.	86,7	105,6
Qorovulbozor tumani	743,9	80,5	18,2	3,1 m.	91,2	94,3
Peshku tumani	11,7	247,1	182,1	121,9	105,2	105,0
Romitan tumani	62,9	392,0	213,0	52,0	122,2	107,0
Jondor tumani	14,1	243,5	142,0	79,9	104,2	106,4
Shofirkon tumani	47,8	395,1	118,5	162,2	97,4	105,5

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Olot tumanida (26,8 m.), Qorako'l tumanida (10,5 m.) va Qorovulbozor tumanida (2025- yilning mos davriga nisbatan 3,1 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Romitan tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 122,2 %), Kogon shahrida (108,0 %) va G'ijduvon tumanida (106,5 %) va kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, po'ydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

Sh. Xodjaev
65 223-81-99 (8020)

Manzil:

200100, Buxoro sh.,
Gazli shoh ko'chasi, 32-uy
